

## MUMTOZ ASARLARNI O'QITISHDAGI MURAKKABLIKALAR

**To'raqulova Mahliyo G'ayrat qizi**

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

O'zbek va rus tillari kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Sharhlab o'qitish uzoq asrlar davomida ilm o'rganishda keng qo'llanib kelingan. Mumtoz asarlarni sharhlab o'qitish bugungi kunda dolzarb masala sanaladi. Mumtoz matn ustida ishlash, notanish so'zlar lug'atini tuzish, o'quvchilarga mumtoz asarlardagi mazmun-mohiyatni yetkazish sharhlab o'qitish asosida amalga oshiriladi. Ushbu maqolada Navoiy asarlarini sharhlab o'qitishning o'ziga xos usullari va amaliy jihatlari haqida mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Sharh, mumtoz adabiyot, matn, lug'at, g'azal, metod, usul.

Maktab adabiyot darslarida mumtoz asarlarni o'rganish xalq og'zaki ijodi namunalari, yangi davr adabiyotini o'qitishdan ko'ra murakkabroq. Ana shu murakkablik nimada ekanligini aniqlab, ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish lozim deydi, metodist olim Valijon Qodirov. Olimning fikricha, mumtoz adabiyot namunalarini o'qitishdagi murakkabliklarning ichki va tashqi omillari mavjud. Ichki omillarga mumtoz adabiyotning shakli, mazmuni va tabiatida mavjud bo'lgan xususiyatlar kiradi. Tashqi omillar esa qarash, munosabat va yondashuvlarning turlichaligidan iboratdir.

Mumtoz adabiyot namunalarni tushunish va tushuntirishdagi murakkablik, avvalo, asarlarning lug'aviy tarkibidagi qiyinchilikda ko'rindi. Haqiqatan, mumtoz asarlarda arxaik va o'zlashgan so'zlar ko'p qo'llangan. Olinma so'zlarning aksariyati arab va fors tillariga tegishli bo'lib, ularning lug'aviy hamda matniy (kontekstual) ma'nosini aniqlash lozim bo'ladi. Agar tojikcha so'zlar o'zbek tiliga so'zlashuv tili orqali, adabiyot orqali va boshqa yo'llar bilan kirgan bo'lsa, arab so'zları, birinchidan, kitob, madrasa, din orqali... kirgan. Valijon Qodirov fikricha, hozirgi o'zbek adabiy tilida arabcha so'zlar bundan 20-25 yil ilgari lug'at tarkibining 13% dan 20% gacha bo'lgan miqdorini tashkil etgan<sup>5</sup>.

Ilm-fan, ta'lif, adabiyot va san'atda arab va fors tillarining mavqeyi asrlar davomida baland bo'lgan. Bir necha yuz yillar davomida ilmiy asarlarning aksari arab tilida, badiiy asarlar turkiy til bilan bir qatorda fors tilida yaratilgan. Shu bois bu ikki tilga mansub lug'aviy birliklar o'zbek

<sup>5</sup>Кадиров Валижон. Умумтаълим мактабларида мумтоз адабиёт намуналарини ўқитишнинг илмий-методик асослари. – Наманган, 2019. – Б. 112.

so'zlashuv hamda kitobiy tilidan mustahkam joy olib, ko'plab so'zlar faol lug'at boyligimizga aylangan. Mumtoz shoirlarning deyarli barchasi arab va fors tillari mukammal o'rgatiladigan madrasalarda o'qiganlar, bu tillarda yaratilgan juda ko'p asarlarni o'qiganlar. Shoirlarning badiiy tafakkuri shu tillarda yozilgan mumtoz asarlar ta'sirida shakllangan. Ijodiy ong, badiiy tafakkurdagi tayyor forsiy, arabiylar qoliplar, shakl va iboralar asarlarni yaratish jarayonida o'z-o'zidan quyilib kelavergan. Natijada o'zbek tilining faol lug'at boyligidan joy olmagan, so'zlashuv tiliga o'zlashmagan talay so'zlar mumtoz asarlarda qo'llanilgan. Ayni shu faqat badiiy asarlardagina uchrab, tilga o'zlashmagan so'zlar mumtoz asarlarning "qiyin"ligiga sabab bo'layotgan ichki omildir. Haqiqatan ham o'qilayotgan asardagi har uch-to'rt so'zning littasi notanish, nutqiy faoliyatida qo'llanilmagan bo'lsa, kishining ishtiyogi so'nadi<sup>6</sup>. Misol uchun amaldagi darsliklarga murojaat qilamiz. 6-sinf adabiyot darsligidagi quyidagi parchaga diqqat qilaylik: "Ulug'ni borgohinda xiradmandi donish va aqli xiradi bohush har qancha ko'p bo'lsa ham oz bo'lur. Xususan, podshohi oldig'a uch toifadin guzir yo'qdur: avval, olimi boamalki, podshohning oxiratlik asbobini taraddudida bo'lsa. Ikkinchchi veziri sohibi ra'yki, podshohning dunyolik yarog'ini taraddudida bo'lsa. Uchinchi, munshiyi rostnavis, qalamzanu nigohdoru shamshirzan bo'lsa". Mazkur jumlalar "Zarbulmasal"dan olingan. Qirq uchta so'z ishtirok etgan bu parcha uchun quyidagi o'n uchta lug'at berilgan: Borgoh – shoh qabulxonasi, saroy; xiradmand – oqil, dono, donishmand; donish – ilm, ma'rifikat, aql, idrok; bohush – es, hushli; Guzir – biror narsadan xalos bo'lish; olimi boamal – ilmga amal qiladigan olim; oxirat asbobi – oxirat uchun zarur ilmlar; sohibi ra'y – aql-tadbir egasi; munshiy – kotib; rostnavis – haqiqatni yozadigan; qalamzan – kotib; nigohdor – nazorat qiluvchi; shamshirzan – shamshir uruvchi, bu yerda: yozishga usta ma'nosida.

O'quvchiga, hatto, o'qituvchiga ham lug'atdan foydalaniib matndan ma'no chiqarish yoqavermaydi. Chunonchi, mazkur parchanining oxirgi "Uchinchi, munshiyi rostnavis, qalamzanu nigohdoru shamshirzan bo'lsa" jumlasidagi olinma so'zlarni lug'atdagi muqobili bilan almashtirsa, "Uchinchi, kotib haqiqatni yozadigan, kotib, nazorat qiluvchi, yozishga usta bo'lsa" tarzidagi ifoda shakllanadiki, undagi fikr mavhum bo'lib, 6-sinf o'quvchisi biror nima anglashi qiyin kechadi. U hayron bo'ladi: "munshiyi rostnavis" (haqiqatni yozadigan kotib) iborasidan keyin nega yana kotib ma'nosidagi "qalamzan" so'zi berilgan. Nima uchun kotib nazorat qiluvchi (nigohdor) bo'lishi kerak? Har qanday kotib yozishga usta bo'lishi kerak. Shunday ekan,

<sup>6</sup>Н.Жумахўжа. Навоий асарларидағи айрим сўзларнинг маънолари ва матний хусусиятлари. Ўзбек тили ва адабиёти. 2014, 1-сон. – Б. 27.

nima sababdan uning "shamshirzan"lik sifati alohida ta'kidlanmoqda"<sup>7</sup>? Darslikdagi lug'at kishida Gulxaniy so'zlarni pala-partish va o'rinsiz ishlatgan ekan degan o'y tug'diradi. Aslida mumtoz adabiyotning yorqin namoyandasi bo'lmish adibda ayb yo'q. Bu yerdagi g'alizlik darslik-majmua mualliflari xatosi natijasidir. Ular arabcha va forscha so'zlarning lug'aviy ma'nosini olganlaru, shu ma'nolar bilan o'qilgan matndan qanday mazmun yuzaga kelishiga diqqat qilmaganlar.

Mumtoz matnlarni tushunishga ularda arab va fors tillardan o'zlashgan affiks, perefiks va affiksoidlarning ko'p qo'llanishi to'siq bo'layotganligi ham haqiqat. Agglyutinativ tabiatga ega bo'lgan o'zbek tilida o'zak qo'shimcha qo'shilishi natijasida deyarli o'zgarishsiz qo'llanib, leksik ma'no anglatadigan shaklini saqlaganligi tufayli, o'zimizniki bo'lib qolgan bir qator chet so'zlarning faol lug'atimizga o'zlashmagan perefiksli va affiksoidli shakllarini nafaqat o'quvchilar, balki kattalar ham tushunmaydilar. Ba'zi so'z birikmalarining matn ma'nosiga ko'ra turli o'rinda turlicha ma'no ifodalashi ham murakkabliklar sirasiga kirishi mumkin. "Boburnoma"dagi "Ma'muraning kanorasida voqe bo'lubtur" jumlasida "voqe bo'lubtur" birikmasi "joylashgan", "o'rnashgan" ma'nosini bersa, boshqa bir o'rinda nisbat berilgan, nisbat qilingan ma'nosini anglatadi. "Turk erdi va turkcha she'ri yaxshi voqe' bo'lubtur" gapida esa ayni birikma "yozilgan", "chiqqan", ya'ni "turkcha she'ri yaxshi yozilgan (she'ri yaxshi chiqqan)" ma'nosida qo'llanilgan.

Maktabda vaznlarni o'qitish ham adabiyot o'qituvchilari uchun murakkab mavzulardan biri sanaladi. Sababi, vaznlarni o'rgatish uchun hamma dasturlarda juda oz soat ajratib kelingan, ba'zilarida esa umuman bu mavzu kiritilmagan. Qolaversa, yaqin yillargacha vaznlarni o'qitish metodikasi ilmda yetarli ishlab chiqilmagan. Anvar Hojiahmedovning "Maktabda aruz vaznni o'rganish" qo'llanmasi bu boradagi yagona manba edi. "O'zbek aruzi lug'ati", "Maktabda o'rganiladigan mumtoz she'riyatning vazn ko'rsatkichlari" kitoblari o'qituvchilarning hamrohi bo'lib keldi. "Maktabda aruz vaznni o'rganish"<sup>8</sup> qo'llanmasida aruz bo'yicha o'quvchilarga berilishi kerak bo'lgan bilim, tushunchalar ko'lami, mazmuni belgilab berilgan, unda tizimli, amaliyotga to'g'ridan-to'g'ri qo'llab, samara berishi mumkin bo'lgan yo'riqlar to'la ishlab chiqilgan deb bo'lmaydi. Lekin u o'qituvchilar uchun o'z ustida ishlashlari, aruz haqida ma'lumot olishlari, oliy o'quv yurtida vaznlar haqida olgan bilimlaridagi kemtiklikni to'ldirish uchun yetarli qo'llanmadir. Shuningdek, A. Qurbonovning risola va

<sup>7</sup>Долимов У. "Зарбулмасал "асарини шархлаб ўрганиш. Совет мактаби, 1988. – Б. 23.

<sup>8</sup>Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznni o'rganish. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – B. 145.

maqolalari, D. Yusupovaning “Ilmi aruz”, D. Zohidovaning “Aruz saboqlari” kitoblari amaliyotdagи ehtiyojlardan kelib chiqib yaratilgan asarlardir.

Kuzatishlar aruzni quyidagi tartibda o‘qitilishi maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi: 1) barmoq vazni to‘g‘risida tushuncha; 2) bo‘g‘inga qiyosan hijo va uning sifatlari; 3) turoqqa qiyosan rukn va uni hosil qiluvchi unsurlar; 4) rukn, uning tuzilishi va turlari; 5) bahrlarning hosil bo‘lishi; 6) vasi hodisasi; 7) vazn talabiga ko‘ra so‘zlarni qo‘llashdagi istisnolar haqida ma’lumot berish; 8) zihoflar.

Mumtoz aruzshunoslikda vaznlar qiyosiga e’tibor qilinmagan bo‘lsa-da barmoq vaznni o‘quvchilarga puxta o‘rgatilishi, bizningcha, aruzni o‘rganishning birinchi shartidir. Yo‘qsa, ish bir necha baravar ortadi va qiyinlashadi. Bunda, birinchidan, barmoq vazni to‘g‘risida tushuncha beriladi; ikkinchidan, o‘ta murakkab sanalgan aruzni o‘qitishda barmoq haqidagi bilimlar tayanch nuqta vazifasini o‘taydi; uchinchidan, bu vaznni amaliyotga qo‘llash yuzasidan shakllantirilgan ko‘nikma va malakalar aruzda ham tatbiq etiladi. O‘quvchilarning bo‘g‘in, ritm, turoq, misra, band kabi barmoq yuzasidan olgan bilimlari, ifodali o‘qishda ularni qo‘llay bilishlari aruzni o‘rganishda qo‘l keladi. Barmoq vazni haqidagi tushunchalarni bolalarga 5-sinfdan boshlab tadrijiylik asosida berish maqsadga muvofiqli. Boshlang‘ich sinfdan bo‘g‘in haqida tushuncha berilgani hamda ona tilidagi bo‘g‘in tushunchasi barmoqdagi bo‘g‘inga aynan mosligi ishni yengillashtiradi. Asta-sekin turoq, misra, band haqida ma’lumot berib boriladi.

Mumtoz adabiyotni o‘rgatishdagi keyingi murakkablik tasavvuf ta’limotining mumtoz asarlar poetikasiga ta’siri masalalari bo‘yicha o‘qituvchilar bilimining yetarli emasligidadir. Tasavvuf bizda nisbatan keyinroq o‘rganishga kirishilgan ilm bo‘lib, unga bo‘lgan munosabat, qarashlar endigina shakllanmoqda<sup>9</sup>. U haqida yetarli tasavvur va to‘xtamga kelish uchun hali ko‘p ishlar qilinishi kerak.

Maktabda mumtoz lirik asarlar ko‘p o‘rganiladi. Ular ichida tili o‘ta og‘ir, tasavvufiy ramzları o‘ta quyuq, ifoda tarzi murakkab bo‘lgan Turdining “Yod mandin kim berur yaxshi zamonlar ko‘rdiman” muxammasi, Navoiyning tahlil va talqin borasida bir to‘xtamga kelinmagan, hatto olimlarning bir-birini inkor etuvchi munozaralariga sabab bo‘lgan “O‘n sakiz ming olam oshubi agar boshindadur” g‘azali mohiyati o‘zbek falsafasi, adabiyotshunosligida to‘liq ochib berilmagan. Mashrabning “Dilim daryoi nurdur, mavj urub dunyog‘a sig‘mamdur”, “Rizo mulkidaman, halqumni tuttim tig‘i Akbarga”, “Junun

<sup>9</sup>Кодиров В. Умумтаълим мактабларида мумтоз адабиёт намуналарини ўқитишнинг илмий-методик асослари. - Наманган, 2019. – Б. 145 .

bozorida mastmanki istig‘nog‘a sig‘mamdur” kabi iqrirlarni tushunish uchun tasavvuf haqidagi jild-jild kitoblarni o‘qish kerak bo‘ladi<sup>10</sup>, bu satrlarning har birini izohlashga soatlar yetmaydi. Shuningdek, Navoiy “Xamsa”si dostonlaridagi tasavvufiy haqiqatlarni anglash va o‘quvchilarga tushuntirish uchun tadqiqotlar olib borilishi kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Zunnunov A., Esonov. J. Maktabda adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1985.
2. Yo‘ldoshev Q., Yo‘ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. –Toshkent: Kamalak. 2016.
3. To‘xliyev B. Mumtoz asarlarni sharhlab o‘rganish . – Toshkent, 2013.
4. Mirqosimova M. Hozirgi o‘zbek adabiyoti namunalarini sharhlab o‘rganish. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2015.
5. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikas. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
6. Tursunova M. Madrasalar ta’limida adabiyot o‘qitish usullari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2017.
7. Qodirov V. Umum ta’lim mакtablarida mumtoz adabiyot namunalarini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari. – Namangan, 2019.
8. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999.

---

<sup>10</sup>Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 128.